

**“ALPOMISH” DOSTONI DUNYO XAQLARIDA VA UNING TARIXI**

**Ahmedova Pokiza Rustamovna**  
**Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti talabasi**

**Annotatsiya:** “Alpomish” dostoni turkiy xalqlar orasidagi noyob badiiy- estetik hodisa sanaladi, xalq o’g’izaki ijodining durdonalarini o’zida saqlagan folklor janri hisoblanadi. Alpomish dostoni anacha yillardan biri ham o’z xalqimizga madrlik, jasurlik timosoli bo’lib kelmoqda.

**Kalit so’zlar:** doston turlari, folklori janri, duyoqarash, turkiyzabon xalqlar, madaniyat ma’rifat,

“Xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tiganmas bir doston bo’lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh baytidir”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, “Alpomish” dostoni o’zbek xalqi madaniyati va ma’naviyatida juda katta o’rin tutadi. Dono xalqning tafakkur mahsuli bo’lmish ushbu doston yosh avlodning barkamol shaxs sifatida kamol topishiga munosib hissa bo’lib qo’shilmoqda.

“Alpomish” dostonini o’rganishda folklorshunos olimlarimiz amalga oshirgan tadqiqotlarga tayanish doston mazmunini yoritishda katta yordam beradi. Shuningdek, metodist olimlarimiz Q.Yo’ldashev hamda O.Madayevlarning tadqiqotlari bevosita sharhlab o’rganishda ham juda qo’l keladi.

Ma’lumki, doston ona tilimiz boyliklarini favqulodda keng qamrov va nozik hassoslik bilan mujassamlashtirilgan. Undagi ifodalarning sodda va tabiiyligi, aniq va ta’sirchanligi, jozibador va ravonligi, xalq dahosining qudratidan dalolat beradi.

Alohibda ta’kidlash joizki, doston matnida tushunilishi qiyin bo’lgan so’zlar u qadar ko’p emas. Ayniqsa xalq donishmandligining go’zal ifodasi bo’lgan maqollar, xalqona iboralar, takrorlanmas tasvir vositalari, ayniqsa iforli mubolag’a va o’xshatishlar, nodir epitentlar ko’plab qo’llangan. Ayni paytda dostonda xalqimizning qadimiy urf- odatlari, an’analari, rasm-rusmlari nihoyatda go’zal badiiy tasvirlarda taqdim etilgan.

Badiiy asar har bir xalqning o’ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtirgani bilan e’tiborlidir. Shuning uchun ham, ularda xalqning tarixi va taqdiri o’ziga xos tarzda aks etadi. Aslida badiiy adabiyot- milliy ongning ko’rinishi sifatida, shu xalqning milliy- ma’naviy fazilatlarini, o’ziga xosliklarini bevosita aks ettiradi. Ular urf-odatlari, an’analari, rasm-rusumlar, shuningdek, milliy-ma’naviy qadriyatlar tarzida ko’rinishi mumkin. Shuning uchun ham folklor asarlarini o’rganishda tarixiy-milliy sharhlarga katta ehtiyoj seziladi.

Dostonda shunday epizod bor: Tavka oyim Alpomishni zindondan chiqarishga harakat qiladi. Buning evaziga esa, “arzimagan” bir shart qo’yadi: Alpomish unga uylanishi kerak. Ammo bizning qahramonimiz bu shartga ko’nib qo’ya qolmaydi. Nima uchun? Vaholanki, uning bundan keyingi taqdiri, hayoti, kerak bo’lsa, o’zi sodiq bo’lgan yor va yurt visoli ham shu harakatga bog’liq bo’lishi mumkin. Boshqa bunday imkoniyatning paydo bo’lmaslik ehtiyojlari ham oz emas.

“Alpomish” dostonning matnini sharhlashda o’zbek xalqining qadimiy urf – odatlari , rasm – rusum , quroq – aslaha, milliy ashyolar, xususan, ovchilik, chorvachilik bilan bog’liq bo’lgan so’zlarga e’tibor berish zarur bo’ladi “Alpomish” dostonida o’zbek xalqining azal- azaldan imon-e’tiqod, or-nomus va yurt birligi yo’lida o’zini ayamasligi yorqin aks ettirilgan. Siz dostonni o’qib, o’ziga unashtirilgan qizning qalmoqlar orasida talash, yurtdoshlarining begonalarga xor bo’lmasligi uchun jonini tikkan Alpomish, Yaratganga imon keltirgani va mo’minga do’st tutingani uchun Hakimbekning yonida o’zining insofsiz yaqinlari hamda

<sup>1</sup> Karimov.I.A.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.Tosh.2008.

qarindoshlariga qarshi kurashgan Qorajon, insoniy fazilatlari bilan ko‘pchilik erkaklardan baland tura oladigan Oybarchin va Qaldirg‘och timsollari millatimizga xos yuksak insoniy sifatlarni aks ettirganligini ko‘rasiz.

“Alpomish” dostonida o‘zbek millatiga xos eng yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar, ayni vaqtida, ayrim millatdoshlarimizdagi cheklanganlik va ojizliklar buyuk bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu doston shunchaki bir doston emas, balki xalqimizning ma’naviy olami va ruhiyat dunyosini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir.

“Alpomish” dostoni ko‘p asrlar davomida baxshilar tomonidan kuylanib xalqni mardlik, qaxramonlik, insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynab kelmoqda. “Alpomish” dostonida xalqimizga xos bo’lgan fazilarlar yuqori ko‘rsatib o’tilgan.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Tursunova M. Adabiyot darslarida sharhlash usuli. “Alpomish” dostoni misolida TAT 1992.
2. Yo‘ldoshev Q. ” Alpomish talqinlari” – T. Ma’naviyat 2002.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5jildlik “Fan” T.2000
4. Tojiyev A. Badiiy asar tahlili. TAT 1994.
5. Yo‘ldoshev Q, Qodirov V , J Yo‘ldoshbekov. Adabiyot. 9-sinflar uchun darslik. Toshkent 2010.
6. <http://kutubxona.com>
7. <http://izlan.uz>
8. <http://qadriyat.uz>
9. <http://kitob.uz>